
O'ylab ko'ring? Sizda hali imkon bor!

O'ylab ko'ring? Sizda hali imkon bor!

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari shu jumladan Oila kodeksiga asosan, ota-ona voyaga etmagan bolalariga ta'minot berishi shartligi, voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undirilishi, voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari voyaga etmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqli ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, agar voyaga etmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun — to'rt dan bir qismi, ikki bola uchun — uchdan bir qismi, uch va undan ortiq bola uchun — yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-459-son Qonuni bilan mazkur turdagi ijro hujjatlarini ijro etish tartibiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

Jumladan ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksga **47⁴-modda** qo'shilib, ushbu moddaga asosan, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik, — o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki ushbu Kodeksga muvofiq ma'muriy qamoq qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga eng kam ish haqining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi, birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar u ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rish jarayonida aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni ixtiyoriy ravishda to'lagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etilishi kabi normalar bilan to'ldirildi.

Majburiy ijro byurosi Qo'shtepa tuman bo'limi

2019-05-20 16:58:46